

OLIY TA'LIM JARAYONINI INDIVIDUALLASHTIRISH TEXNOLOGIYALARI

Xakimova Sevara Xasan qizi

Navoiy Davlat Universiteti San'at va sport fakulteti

Pedagogika nazariyasi va tarixi yunalishi 1-kurs magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada ingliz tilini o'qitishda keng qo'llaniladigan "metod", "metodika" va "texnologiya" tushunchalarining mazmun-mohiyati ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Muallif tomonidan turli yondashuvlar asosida ushbu tushunchalarning farqli va umumiy jihatlari ochib berilgan. Ingliz tilini o'qitishda zamonaviy pedagogik hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati asoslab berilgan.

Maqolada interfaol va o'yinli metodlarning talabalarning nutqiy faoliyatini rivojlantirish, mustaqil fikrlashini faollashtirish va o'quv motivatsiyasini oshirishdagi o'rni yoritilgan. Shuningdek, elektron o'quv kurslari orqali ta'limni individuallashtirish imkoniyatlari ko'rsatib berilgan hamda ularning tuzilmasi va funksional quyi tizimlari tavsiflangan.

Tadqiqot natijalari oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'qitishda an'anaviy metodlar va zamonaviy ta'lim texnologiyalarini integratsiyalash asosida ta'lim sifatini oshirish mumkinligini tasdiqlaydi.

Kalit so'zlar: ingliz tilini o'qitish, metod, metodika, ta'lim texnologiyasi, interfaol metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, o'yinli metodlar, elektron o'q

Ingliz tilini o'qitishda "metod", "metodika" va "texnologiya" tushunchalari keng qo'llaniladi. Mazkur tushunchalarning mohiyatini tavsiflashda turli yondashuvlar mavjud bo'lib, bu holat mutaxassislar o'rtasida bahs-munozaralarga sabab bo'lib kelmoqda. Biroq ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish va mavjud qarashlarni umumlashtirish orqali ushbu tushunchalarning mazmun-mohiyatini aniqroq belgilash mumkin.

Muayyan ta'lim-tarbiyaviy maqsadga yo'naltirilgan faoliyatni amalga oshirish yo'li, usuli yoki shakli metod sifatida talqin etiladi. Ya'ni, maqsadga erishishga xizmat qiluvchi har qanday tizimli faoliyat o'ziga xos ta'lim metodi hisoblanadi. Ingliz tilini o'rganishda talabalarga bir nechta metodlar taklif etilmoqda. Ulardan biri fundamental metod bo'lib, u kamida 2–3 yillik o'qishni, grammatikani chuqur o'rganishni talab etadi. Ushbu metod asosan professional tarjimonlarni tayyorlashda qo'llaniladi va o'qish yakunida talabalar tilni “native speaker”, ya'ni til tashuvchisi nuqtayi nazaridan idrok etish darajasiga yetadilar. Bu metod asosida til real va to'laqonli muloqot vositasi sifatida o'rganiladi.

Hozirgi davrda fundamental metod o'z mohiyatini saqlab qolgan bo'lsa-da, boshqa ko'plab metodlar aynan shu metod bilan raqobatga kirishgan. Tilni o'rganish jarayonida eng muhim jihat uzatilayotgan axborot mazmunining to'g'riligidir. Shu bois metod tanlashda o'quvchilarning tayyorgarlik darajasi, ehtiyojlari va individual imkoniyatlarini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Respublikamiz ta'lim tizimini isloh qilish jarayonida xorijiy tajribalarga asoslangan va xalqaro standartlarga mos keluvchi o'quv dasturlarini joriy etish oliy pedagogik ta'lim tizimini takomillashtirishning muhim omili bo'ldi. O'zbekiston sharoitida milliy mentalitet, urf-odat va an'analarni inobatga olgan holda xorijiy tajribalarni tatbiq etish asosida ta'lim sifatini tubdan oshirish davr talabi hisoblanadi.

2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida ta'lim va o'qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida oliy ta'lim muassasalari faoliyatining sifati va samaradorligini oshirish, ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatni rag'batlantirish, ilmiy yutuqlarni amaliyotga joriy qilishning samarali mexanizmlarini yaratish vazifalari belgilangan. Shu bilan birga, oliy ta'lim muassasalarining yetakchi xorijiy ilmiy-ta'lim muassasalari bilan hamkorligini rivojlantirish, talabalarning kreativlik qobiliyatlarini shakllantirish hamda interfaol usullar orqali chet tilidan sifatli ta'lim berish muhim vazifalar qatoriga kiritilgan.

Bugungi kunda ingliz tilini o'rganishga bo'lgan talab tobora ortib bormoqda. Bu jarayonda o'qish, yozish, tinglab tushunish va gapirish ko'nikmalarining har biri bo'yicha

alohida bilim va malakalar shakllantiriladi. Mazkur jarayonda ta'lim texnologiyalari hamda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish ta'lim sifatini oshirishning muhim omili hisoblanadi.

Zamonaviy texnologiyalar yordamida ingliz tilini o'qitish va o'rganish jarayoni individuallashtirilgan shaklda tashkil etiladi. Jumladan, kompyuterlar orqali ingliz tilidagi video lavhalar, dialoglar, filmlar va multfilmlarni ko'rish va eshitish, radio va televideniya dasturlarini tinglash, audio disklar yordamida mashqlar bajarish mumkin. Ushbu texnik vositalardan foydalanish talabalar uchun o'quv jarayonini qiziqarli va samarali tashkil etishga imkon yaratadi.

Tinglab tushunish til o'rganishning muhim jihatlaridan biri bo'lib, bunda talaba bir vaqtning o'zida so'zlovchining talaffuzi, grammatik tuzilmalarga rioya qilishi, so'z boyligi va ma'no jihatlarini idrok etishi talab etiladi. Shuning uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish talabaning mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish bilan bir qatorda, individual ehtiyojlarini ham hisobga olish imkonini beradi.

Hozirgi vaqtda oliy ta'lim muassasalarida ingliz tili mashg'ulotlarini interfaol va o'yinli metodlar asosida tashkil etish keng tarqalmoqda. O'yinli faoliyat talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish, diqqatini jamlash va ijodiy imkoniyatlarini namoyon etishda muhim rol o'ynaydi. O'yin faoliyatining psixologik mexanizmlari shaxsning o'zini namoyon qilish, o'z imkoniyatlarini amalga oshirish va mustaqil qaror qabul qilish ehtiyojlariga tayanadi.

Bugungi kunda ingliz tili o'qitishda quyidagi innovatsion metodlardan keng foydalanilmoqda:

- “Muammoli vaziyat yechimi” (Creative Problem Solving);
- “Quvnoq topishmoqlar” (Merry Riddles);
- “Tezkor javob” (Quick Answers);
- “Hikoya zanjiri” (Chain Story);
- “Rasmlar so'zlaganda” (When Pictures Speak).

Mazkur metodlar talabalarning og'zaki nutqini rivojlantirish, mustaqil fikrlashini faollashtirish va bilimlarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Ushbu texnologiyalarda

o'qituvchi va talaba o'rtasidagi hamkorlik asosiy o'rinni egallaydi. Talaba ta'lim jarayonining faol subyekti sifatida shakllanadi, bilimga bo'lgan qiziqishi ortadi va mustaqil tayyorgarlikka intiladi.

Oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'qitishda ta'limni individuallashtirish ayniqsa dolzarbdir. Chunki talabalar tilni bilish darajasi, grammatika va leksikani o'zlashtirish tezligi, mustaqil ishlash ko'nikmalari jihatidan bir-biridan sezilarli farq qiladi. Shuning uchun zamonaviy axborot ta'lim texnologiyalaridan foydalanish orqali har bir talabaga moslashtirilgan o'quv faoliyatini tashkil etish zarur bo'ladi.

Elektron o'quv kurslari (EO'K) ta'limni individuallashtirishning samarali vositalaridan biridir. Elektron o'quv kursi yagona dasturiy muhitga birlashtirilgan, muayyan fan bo'yicha tizimlashtirilgan o'quv materiallarini o'z ichiga olgan didaktik muhit hisoblanadi. EO'Kdan foydalanish talabalarga quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

- o'quv materiallarini o'zlashtirish tezligini individual ravishda tanlash;
- bilim darajasiga mos mashq va test topshiriqlarini bajarish;
- xatolar asosida kerakli nazariy materialga qayta murojaat qilish;
- mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etish.

“Ingliz tili grammatikasi” elektron o'quv kursidan foydalanish tajribasi shuni ko'rsatadiki, EO'K yordamida grammatika bo'yicha bilimlarni mustahkamlash va avtomatlashtirish samaraliroq amalga oshiriladi. Talaba test topshirig'ida xatoga yo'l qo'ygan taqdirda, tizim uni bevosita shu mavzuga oid nazariy materialga yo'naltiradi. Bu esa bilimlarni individual ravishda to'ldirish va bo'shliqlarni bartaraf etish imkonini beradi.

Elektron o'quv kursi tuzilmasida uchta asosiy funktsional quyi tizim ajratiladi:

1. kontent quyi tizimi – o'quv materiallari, grammatika mavzulari, lug'atlar va qo'shimcha resurslarni o'z ichiga oladi;
2. axborot va navigatsiya quyi tizimi – talabaga kerakli materialni tez topish, mavzular bo'yicha harakatlanish va qidiruvni ta'minlaydi;
3. diagnostika quyi tizimi – testlar orqali bilim darajasini aniqlaydi va baholaydi.

Mazkur quyi tizimlar o'zaro uyg'un holda ishlaydi va ta'lim jarayonini individuallashtirishga xizmat qiladi. Har bir talaba o'z tayyorgarlik darajasiga mos

topshiriqlarni bajaradi, mustaqil ishlash jarayonida zarur yordamni oladi va o'z bilimni baholash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Oliy ta'limda ingliz tilini o'qitishda elektron ta'lim texnologiyalaridan foydalanish quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

- o'quv materialini o'zlashtirishning individual traektoriyasini shakllantirish;
- o'quv motivatsiyasini oshirish;
- mustaqil ta'lim faoliyatini rivojlantirish;
- bilimlarni tezkor diagnostika qilish;
- o'qituvchi va talaba o'rtasidagi teskari aloqani kuchaytirish.

Shunday qilib, ingliz tilini o'qitishda elektron o'quv kurslaridan foydalanish ta'limni individuallashtirishning samarali texnologiyasi hisoblanadi. An'anaviy o'qitish usullari va zamonaviy axborot texnologiyalarining integratsiyasi oliy ta'limda chet tilini o'qitish sifatini sezilarli darajada oshiradi hamda talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947-sonli farmoni. 2017-yil 7-fevral. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, Toshkent sh., 2017-y., 6-son, 70-modda.
2. Harakatlar strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanish sari. / Nashrga tayyorlovchilar: M.Bekmurodov, Q.Quronboyev, L.Tangriev.- Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017-y., – 92 b.
3. Артемов В. А. Психология обучения иностранному языку. — М.: Педагогика, 1989. — с. 103. 26. Бим И. Л. Некоторые актуальные проблемы современного обучения иностранным языкам. — ЯИШ. 2001, № 4. — с. 39.
4. Sharobidinova, Z. T., & Kabilova, N. O. Comparative analysis of Linguocultural aspects of proverbs and sayings about Parents and problems of Linguodidactics (based on materials of Uzbek and English languages).

5. Малкина, Н. А. (1996). Методика использования сказки в обучении дошкольников устной речи на английском языке.
6. Нишоналиев У. Инновационные педагогические технологии обучения и развития. – Алма-Ата: Респ. издат. каб. Казахс. акад. образования им. И.Алтысарина, 2000. – с. 235-240.
7. Sharabidinovna, Z. T., Kizi, J. D. I., Azizovna, D. G., & Ruzikulovna, J. Y. (2020). CRITICAL PERIOD HYPOTHESIS IN ACQUIRING THE SECOND LANGUAGE: THE CASE OF TWO UZBEK STUDENTS. *Journal of Critical Reviews*, 7(7), 881-884.